

Date: 3<sup>rd</sup> November-2025

“MAXTUMQULI SHERLARI TAHLILI”

Mualliflar: **Mamathakimova Oliya**  
**Jo‘rayeva Muslima**  
**Boyliyeva Madina**

**Annotatsiya:** Maqolada Maxtumquli ijodining o‘zbek va umumiy turkiy adabiyotdagi o‘rni, lirik va epik elementlarning uyg‘unligi, shuningdek, she‘rlardagi ramziy va metaforik ifodalarning ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Maxtumquli, she‘riyat, tahlil, poetika, metafora, falsafiy motivlar.

Maxtumquli - turkman shoiri va mutafakkiri. Otasi Davlatmamat Ozodiy (1700—1760) ham shoir bo‘lgan. Maxtumquli boshlang‘ich ta‘limni oilada o‘z otasidan olgan.

Maxtumquli. bir kancha lirik she‘rlar, lirik epik dostonlar, g‘azal va muhammaslar yozgan. Bizgacha uning lirik, falsafiy, pandnasihat harakteridagi 10 ming miyeradan ortiq she‘rlari yetib kelgan. Maxtumquli. she‘rlarida turkman xalqining hayoti, urf-odatlar, o‘z davrining muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalari, shoirning ichki kechinmalari teran ifoda etilgan (“Bo‘lmasa”, “Kelgay”, “Bilan”, “Naylayin”, “Yetmas”, “Bular”, “Ketdi zamona” va boshqalar). Asarlarida turkman urug‘larini birlashishga chaqirgan. Ular o‘rtasidagi nizo janjallarni tugatishga uringan. Maxtumqulining ishq-muhabbat mavzusidagi she‘rlari ham ohangdorligi, chukur falsafiy mohiyati bilan ajralib turadi. Shoirning hayot va o‘lim, inson va borliq, go‘zal insoniy fazilatlar va odob-axloqqa oid she‘rlarida islom dini hamda tasavvufiy qarashlar ta‘siri yaqqol seziladi. Ko‘p she‘rlariga Qur‘oni Karim oyatlari, hadisi sharifning mazmun mohiyati singdirilgan. Shoir she‘rlarida payg‘ambarlar, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy singari ulug‘ zotlar juda ko‘p tilga olinadi. Shuningdek, Allohga munajat, Rasululloh (sav)ga murojaat ohanglari Maxtumquli she‘riyatining eng asosiy tamoyillaridan biridir (“Riyodan, yo Rab”, “Sochdi Muhammad”, “Yo Rasul” va boshqalar). Maxtumquli uslubida xalq og‘zaki ijodiga yaqinlik bor. Maxtumquli turkman xalqining maqol va matallarini, xalq tiliga xos ayrim unsurlarni adabiyotga olib kirishda katta xizmat qilgan. Shoirning purma‘no misralari turkman millatining hikmatli so‘zlari, aforizmlar qatoridan o‘rin olgan. Maxtumquli ijodi Yevropa va rus sharqshunoslari, turkman va o‘zbek olimlari tomonidan tadqiq etilgan; qiyosiy o‘rganilgan. Xususan, Navoiy ijodining Maxtumquliga ta‘siri va boshqa adabiy ta‘sir masalalari tekshirilgan (S. Qoriyev, “Navoiy va Mah-tumquli”, “Maxtumquli va Islomshoir”, “Maxtumquli she‘rlari asosida yaratilgan o‘zbek xalq qo‘shiqlari” va boshqalar). Shuningdek Maxtumqulining “Namasan”, “Ayrildim”, “Oshiq bo‘lmisham”, “Ustodingdan ayrilma”, “Ko‘ring” she‘rlari Komiljon Otaniyozov, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonov tomonidan maromiga yetkazib kuylangan. Maxtumquli she‘riyati barcha turkiy millatlar, jumladan, o‘zbeklarning ham ma‘naviy mulkiga aylangan. Bir necha marta she‘rlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. Ko‘plab she‘rlari hofizlar tomonidan kuyga solib aytiladi.

Maxtumquli she‘riyati – nurli she‘riyat.



Date: 3<sup>rd</sup> November-2025

Uning ijodida dunyoviy va uxroviy ilm- ma'rifatdan xabar beruvchi savol-javob tarzidagi she'rlar alohida mavqe'ni ishg'ol etadi, yuraklarni larzaga soladi. Adibning Turdi shoir bilan aytishuviga diqqat qilaylik:

Maxtumquli: –

Ul nimadir, yoqasi bor, yoni yo'q?

Ul nimadir, qanoti bor, qoni yo'q?

Ul nimadir, odam yutar, joni yo'q?

Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Turdi shoir: –

Ul kafandur, yoqasi bor, yoni yo'q,

Kapalakdur, qanoti bor, qoni yo'q,

Qaro yerdur, odam yutar, joni yo'q,

Bizdan salom bo'lsin, javob shundaydir...

Maxtumquli: –

Ul nimadur, yemadilar, to'ydilar?

Ul nimadur, qiyomatga qo'ydilar?

Ul kim edi, tovonidan so'ydilar?

Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Turdi shoir: –

Ul diydordur, yemadilar, to'ydilar,

Ul namozdur, qiyomatga qo'ydilar,

Nasimiyning tovonidan so'ydilar,

Bizdan salom bo'lsin, javob shundaydir...

Savol-javob she'rlarida "tajohuli orifona" tarzida, ya'ni bilib turib bilmaslikka olib, zamondoshining iste'dodi va ilmi-ma'rifatini sinash uchun savollar o'rta qo'yiladi. Bu so'roqlarga javob berish uchun esa iste'doddan tashqari, keng qamrov, nozik farosat, ulkan ilm-irfon ham bo'lishi zarur. Aytganimizdek, Maxtumquli faqat iste'dodli shoir emas, balki ulkan alloma, ahli hol, ahli sirr, ahli hikmat bo'lgan orif zotdir. Ma'no olamida uning bir qancha aziz siymolar bilan irtiboti borligi anglashiladi. Bir qancha she'rida u haq Payg'ambarlar, mashhur avliyolar bilan bog'liq tushlarini farah va shukrona bilan bayon etadi.

Uning she'rlari jarohatli yuraklarga malham, horg'in vujudlarga quvvat, tushkun ruhga ko'tarinkilik bag'ishlaydi. Xuddi shuning uchun turkman xalqi qiynalgan, ozor chekkan, nochor qolgan, g'ussaga botgan paytlarda Maxtumqulini dardlaridan forig' etadigan ma'naviy bir hakimi Luqmon deb biladi. Shoirning malham yanglig' she'rlari, da'vatkor so'zlari barcha davrlarda katta-yu kichikning ruhini poklab, bu go'zal dunyoga, insonga, hayotga muhabbat uyg'otadigan, xalq ko'nglini yuksakka ko'tarib, butun turkman jamiyatining ruhiy sog'lomligiga xizmat qilib kelgan. Haqiqatdan ham Maxtumquli she'rlari tog' bag'ridan qaynab chiqqan zilol chashmaning suvi kabi musaffodir. Ular lola-rayhonli, gullolali bog'-bo'stonning muattar hidi kabi barq urib, ko'ngilni zavqu shavqqa to'ldiradi. Bo'g'in-bo'g'inlarni bo'shashtirib, yuraklarni yayratgan dutorning mayin va dil o'rtar nolasi kabi hayajonga soladi. Maxtumquli



Date: 3<sup>rd</sup> November-2025



yashagan zamon nihoyatda og'ir va murakkab bir davr edi. Shu davrning ma'naviy havosidan nafas olgan shoir kuchli larzalarning, turli hodisalarning girdobida kuyib-pishib yashagan. U jamiyatni, hayotni, odamlarni teran tushungan, insoniyat erishgan dunyoviy va diniy tasavvufiy ilmlarni chuqur o'zlashtirgan, ma'naviy kamolotga erishgan komil zot bo'lgan. Mutaqakkir umuminsoniyat baxtu saodati uchun jon kuydirib yashagan chog'ida o'sha davrda dunyoning turli burchaklariga sochilgan, mustaqil davlati bo'lmagan turkman xalqini hamjihat bo'lishga, yagona davlat atrofiga jipslashishga, milliy birdamlikka chaqiradi. "Turkmanning..." she'rida shunday misralar bor: Ko'ngillar, yuraklar bir bo'la boshlar, Uyushsa, eriydi tuproqlar, toshlar, Bir sufrada tayyor qilingan oshlar, Yuksaladi baxt-iqbol turkmanning. Bu she'r qo'shiq qilib kuylangan, turkman xalqi uchun XVIII-XIX asrlarda milliy madhiya bo'lib xizmat qilgan. Lekin bu aniq g'oyani noahil xalqining bir dasturxon atrofida jam bo'lishini qanday qilib amalga oshirish mumkin edi? Mutaqakkir shoir buning uchun bir boshga bo'ysunish zarurligi, bir mardning atrofiga jam bo'lish kerakligi g'oyasini ilgari surdi. Shoir har qanday og'ir va mushkul sharoitlarda ham o'z elining baxtiyor kelajagiga bo'lgan ishonchini yo'qotmadi.

Xususan, "Sado bo'ldim" she'rida quyidagi misralarni keltiradi:

Maxtumquli, miskinman, ko'nglim uyi na ma'mur,  
So'zga yaqin bandaman, xayrim kamu, sharrim zo'r,  
Na o'zim xalqqa qobil, iqbolim kaj, baxtim sho'r,  
Na shohista a'molim, go'yo qadam urar ko'r,  
Magar ayyom istasa, bo'lgay nuri a'lo nur,  
Illat o'qi ayni dam tushgandir bo'lib mahjur,  
Yomonlik birla bo'ldim jahon ichida mashhur,  
Tegirmondek bonggirman, samandardek otashxo'r,  
Kuydim, pishdim yor-do'stlar, o'rtandim, ado bo'ldim.

Ushbu misralarda shoir o'zining ahvoli, iqbol haqida so'z yuritadi. Shuningdek, she'rning birinchi misrasida taxallusiga ham urg'u berib o'tadi.

Maxtumquli she'rlari asosan milliy istiqloq, vatanparvarlik, adolat, insoniylik va ma'rifat mavzulariga bag'ishlangan. Shoir o'z xalqining og'ir hayotini ko'rsatadi, zulm va adolatsizlikka qarshi tanqidiy ohangda yozadi. Shu bilan birga, u o'z xalqini birlashishga, bilim olishga, axloqiy qadriyatlarni saqlashga chaqiradi. Masalan, u ko'pincha shoirlik vazifasini xalqning maslahatchisi va ogohlantiruvchisi sifatida talqin qiladi.

Til va uslub: Maxtumquli she'rlari oddiy, tushunarli xalq tilida yozilgan, shu bilan birga, maqol va hikmatlar, turkman tilining boyligi bilan boyitilgan. Shoir ritm va qafiyaga e'tibor beradi, bu esa she'rlarni esda qolarli va oson yod olinishiga yordam beradi. Uning uslubi — soddalik va chuqur ma'no uyg'unligidan iborat. Shu sababli Maxtumquli she'rlari nafaqat adabiy, balki ma'naviy meros sifatida ham qadrli hisoblanadi.

Qahramon va obrazlar: Shoir she'rlarida asosiy qahramon — xalqning o'zi. U ko'pincha shoirning o'zi sifatida ham namoyon bo'ladi. Obrazlar orqali insoniy va milliy fazilatlar, xalqning orzulari, dardlari va intilishlari ochib beriladi. Maxtumquli shuningdek, hukmdorlar va zulmkor amaldorlarni tanqid qilish orqali, xalq uchun adolat va ijtimoiy haqiqatni ta'kidlaydi.

Date: 3<sup>rd</sup> November-2025



Falsafiy va ijtimoiy mazmun: Maxtumquli she'rlari ijtimoiy adolatsizlik, zulm, befoydaalik va xalqning dardini yoritadi. Shu bilan birga, ular axloqiy, ma'naviy va milliy qadriyatlarni targ'ib qiladi. Shoir ko'pincha shaxsiy hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda, o'quvchini tafakkurga, hayotiy haqiqatni tushunishga chaqiradi. Bu jihatdan uning she'rlari faqat badiiy asar emas, balki ma'naviy tarbiya manbai ham hisoblanadi.

Shoirning ijtimoiy va tarixiy roli: Maxtumquli Frasiy turkman xalqining tarixiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadi. U o'z asarlarida xalqni birlashishga, bilim va tafakkurga intilishga, o'z qadriyatlarini saqlashga chaqiradi. Shoirning she'rlari davrining siyosiy va ijtimoiy vaziyatini yoritib, milliy ong va istiqlol ruhini shakllantiradi. Shu bilan birga, uning she'rlari turkman adabiy tilini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shgan.

Maxtumquli she'rlari — xalq hayoti, adolat, vatanparvarlik va ma'naviyatni ifodalovchi yuksak badiiy merosdir. Shoirning ijodi nafaqat adabiy, balki ma'naviy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, turkman xalqining ruhiyati va intilishlarini aks ettiradi. U xalqning og'ir hayotini yoritib, ijtimoiy adolat, axloqiy qadriyat va ma'rifat tarafdori sifatida tarixga kirib qolgan.